

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N: 3 (67272)  
2020-yil 20-yanvar

# Tong yulduzi

[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092

## YOSH MATEMATIKLARNING YANA BIR MUVAFFAQIYATI



O'tgan hafta davomida turli xushxabar-u ta'lif sohasida ro'y bergan ajoyib voqeа-hodisalarining guvohi bo'ldik. Ular orasida ayniqsa, yurtimizning bir guruh yosh matematiklarning qo'lga kiritgan yutuqlariga havas qilsangiz arziydi. Havas esa sizni ham g'alabalar sari chorlashini istaymiz.

Qozog'iston Respublikasi, Olmaota shahrida matematika, fizika va informatika fanlaridan bo'lib o'tgan XVI xalqaro Jautikov (IZHO) olimpiadasida qatnashgan tengdoshlarining munosib o'rnlarni egallashdi. Jahon miqyosida yuqori nufuzga ega mazkur olimpiadada yurtimiz vakillari 6 ta medalni qo'lga kiritdi. Mamlakatimiz o'quvchilarini yil boshidagi muvaffaqiyatlari bilan qutlab, bunday katta marralarni zabit etishdan charchamang, deymiz!

## 3-CHORAK YANGI BINODA BOSHLANDI





## 3-CHORAK YANGI BINODA BOSHLANDI

Tolibjon Sultonmurodov ustozni Mashhura Po'latova ko'magida «O'zbek bolasisi» nomli she'mni kugya solib aytishni o'rgandi. Raqsini siftdoshlari Hanifa Narzilayeva, Mehribon Erkinova, Behruza Saidahmadova ustozlari boshchiligidagi sahnalahtirishdi va yangi ta'mirdan chiqarilgan maktablarining ochilish mafosimiga bag'ishlangan bayram tadbirda ijro etishdi.

Shu munosabat bilan ushbu ta'limga muassasasidagi iqtidorli o'quvchilar bilan tanishdi. Tolibjon «Ertak qahramonlari» mavzusida chizilgan «Rasmlar tanlovi»da ishtirot etib, tumanda 2-o'ranni egallabdi. Behruza «Konstitutsiya – mening taqdirimda» nomli inshosi uchun maktab bo'yicha faxrli o'ranni egallabdi. O'quvchilar gazetamizning 2020-yilda chop etilgan ilk soni

bilan tanishar ekan, Tolibjon: — «Yil fasllari» bolalar ijodiy rasmlari respublika ko'rik-tanloviga o'zim chizgan rasmlarni yuboraman va albatta, g'olib bo'lishga harakat qilaman, — dedi. 9-«A» sinf o'quvchilar Muxsina Zohidova «Yosh kitobxon» ko'rik-tanloving tuman bosqichida 3-o'ranni egallabdi. Siftdoshlari Mohira Mirzaahmedova, Kamola Ibrohimxo'jayeva

Maktab sahnasida bejirim kiyimlari o'ziga yarashgan bolakay qo'shiqni berilib ijro etadi. Atlas ko'ylakli qizlar esa qo'shiq ohangiga monand raqsga tushishadi. Yig'ilganlar ularni olqishlab, gulduros qarsaklar chalishadi. Bu san'atsevar o'quvchilar kimligiga qiziqayotgan bo'lsangiz kerak-a? Ular poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 85-umumta'lism maktabining 5-«A» sinf o'quvchilari.

ham adabiyotni juda yaxshi ko'risharkan. She'r yod olish, badiiy kitob o'qish bu uch dugonaning jon-u dili ekan. miz. Bu takliflarimizni ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinosari Mahfuza Nasrullayeva,

## ENG YAXSHI KITOBXON MAKTAB

Aziz o'quvchim! So'nggi paytlarda kitob o'qigan o'quvchining qanday yutuqlar-u sovrinlarga erishayotgani haqida ko'p va xo'p eshitmoqdasiz. Bugun esa Sizni «Eng yaxshi kitobxon maktab» bilan tanishtirmoqchimiz.



tezkor savol-javoblarda o'zbek va jahon adabiyoti namoyandalari, ularning asarlari bo'yicha olgan bilimlarini sinovdan o'tkazishdi.

Shunday qilib, Kattaqo'rg'on tumanidagi 1-umumta'lim maktabi 1-o'ringa munosib ko'rildi va 100 million so'm miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlandi.

2-o'ringa esa Paxtachi tumanidagi 24-umumta'lim maktabi loyiq topilib, kompyuter jamlanmasini qo'liga kiritdi.

3-o'rin – Ishtixon tumanidagi 1-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabiga nasib etdi. Maktab jamoasi noutbuk bilan taqdirlandi.

G'oliblarga mazkur mukofotlar tantanali ravishda topshirilar ekan, doira-yu kuy-qo'shiqlarning jarangi barchani bayramga chorladi.

Sayyora QODIROVA



— 254-umumta'lim maktabida o'tkazilgan «Qizlar Sammiti»da ham qatnashganimiz, — deydi Kamola. — So'ngra, o'z maktabimizda ham ana shunday tadbir o'tkazdik. Qizlarni ko'proq qanday mavzular qiziq-tirishini o'rgandik.

Ma'naviy-ma'rifiy soatlarda ustozlarimizga ana shu mavzular doirasida suhbatlar uyushtirishni, rejaga kiritishni taklif qilayap-



Yoshlar yetakchisi Humayun Yo'idoshev, albatta, inobatga olishyapti.

— Maktabimiz o'quv yilining 3-choragini ta'mirdan chiqqan ta'limga muassasasida boshlashdi, — dedi 85-umumta'lim maktabi rahbari Salima Sharopova. — Maktabimiz qoshida xususiy maktab ochish niyatimiz bor. Biz uchun yaratilgan shart-sharoitlarga javoban darslar, mashg'ulotlar samaradorligini, o'qituvchilar malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratayapmiz. Shuningek, oila-maktab-mahalla hamkorligini yanada yuqori darajaga ko'tarishga harakat qilamiz, deya ishonch bilan ayta olaman.

Ta'limg-tarbiyaning asosiy poydevori bu maktab. Maktabning mavqeini ko'taradigan omil esa bu o'qituvchilardir. Fursatdan foydalanib, mazkur bilim dargohida faoliyat ko'rsatayotgan barcha ustozlarimizga mas'uliyatli va sharafli ishlariда muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Nodira NAZAROVA

Erta tongda maktab tomon yo'l olarkanman, bilim olish uchun shoshib darsga borish o'rni, o'zlarining mobil aloqa vositalari bilan ovora o'quvchilarni kuzataman. Telefonagi turli o'yinlar, har xil saytlar o'quvchilar xayolini butunlay egallagandek, go'yo.

Telefon degan matoh bolalarning ong-u shuurini shunday egallaganki, dars vaqtida ham uni qo'llaridan qo'yishmaydi. Bu esa o'qituvchimizga, sinfdoshlarga nisbatan hurmatsizlik belgisidir. Hattoki bir bola dars vaqtida aloqa vositasidan foydalangani uchun o'qituvchimiz bilan tortishib qoldi. Shunda o'qituvchimiz aytgan maslahat va o'gitlardan vaqtini qadriga yetish, darslarni o'z vaqtida bajarish, telefondan me'yorida, oqilona foydalanish lozim, degan xulosa chiqardik.

## OQILONA XULOSA

Hozirgi kunda yoshlarining ko'pchiligi «Virtual olam»ga juda bog'lanib qolishgan. Ular uchun hayot shundan iberat bo'lib qolmoqda. Undagi turli xil o'yinlar insonlar ongini zahar-lamoqda. Natijada, o'smirlar orasida o'z joniga qasd qilish holatlari ham kuzatilmoga.



Internet orqali do'stlar topishmoqda. Farzandlar ota-onalariga, yaqinlariga bee'tibor, bemehr bo'lib bormoqda. Lekin internetning foydali tomonlari ham yo'q emas.

O'qishda, ishda kerakli savollarga javob topishda foydalanish, dunyo yangiliklaridan tezkor xabardor bo'lish kabi foydali jihatlari ham bor. Faqatgina undan to'g'ri, oqilona foydalana bilish lozim.

Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, yoshlarning kompyuter savodxonligini oshirish, ularning texnologiyalardan unumli foydalanishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Biz ularдан ezgu maqsadlar yo'lida foydalansak, hamma maqsadlarimizga erishamiz. Qimmatli vaqtimizni turli o'yinlar-u har xil saytlarga behuda sarflamasdan, oldimizga qo'ygan ezgu niyatlarimiz sari intilaylik.

Karimjon IKROMOV,  
Andijon tumanidagi 23-umumta'lum  
mabitabining 11-«B» sinf  
o'quvchisi

## GRETA TYUNBERG - YIL ODAMI DEYA E'TIROF ETILDI

Tyunberg har juma kunlari Shvetsiya parlamenti binosi oldida turib, hukumatni gaz chiqindilarini kamaytirishga va tabiatni asrashga chaqiruvchi harakatlarni uyuşhtirgan. 15 yoshida o'zining kichik guruholarini tashkillashtirgan.

Uning harakatlari besamar ketmadi. Greta ning fidoyiliги millionlab insonlarni to'lg'inqantirib yubordi. 2019-yilning sentyabr oylariga kelib Gretaning bu tashabbusi ommaviy tus ola boshladi. Natijada, Greta Birlashgan Millatlar Tashkiloti Sammitida davlat rahbarlariga murojaat bilan chiqdi, Rim Papasi bilan uchrashdi. Amerika Prezidenti bilan bo'lgan muloqotidan keyin okeanorti davlatining 4 milliondan ziyod



## KITOB O'QISH MO'JIZASI

Insonda dunyoqarash va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning eng foydali usuli – kitob o'qish. Mutolaani sevgan insonning qalbi go'zallashib boradi.

Men ham bo'sh qoldim deguncha kitob mutolaasiga tutinaman. Maktabimiz kutubxonasi esa men va do'stlarimning eng suyukli go'shasiga aylangan! Kutubxonamizning kundan kunga xilma-xil kitoblar bilan boyishi ko'zimizni yanada quvontiryapti. Bundan tashqari, zamonaviy ilm-fan aniqlashicha, kitob mutolaasi inson salomatligiga ham ijobji ta'sir qilishini aniqladilar. Gaplarim isboti sifatida, mutolaa xususidagi ayrim qiziqarli ma'lumotlarni siz aziz do'stlar bilan bo'lishsam:

- Kuniga 6 daqiqlik kitob mutolaasi odamdag'i tushkunlik kayfiyatini 68%gacha qisqartiradi;
- Miyani turli kasalliklardan (Alts-geymer, Demensiya) himoyalaydi.
- Uyida kichik bo'lsa-da, kutubxonasi bor bolalarning aqliy qobiliyat tengdoshlariniga nisbatan ancha yuqori bo'ladi.
- So'z boyligini oshirishda hech qaysi vosita kitobchalik ko'maklasha olmaydi.
- Har kuni kitob mutolaa qilgan inson bilimi boyib boradi.
- Kitobga bo'lgan muhabbat odamni yuqori martabalarga ko'tarishi ham bor gap. Misol uchun, mashhur ixtirochi Tomas Edison 2-3 qatorni bir vaqtida o'qigan va ularni deyarli hammasini yodda saqlay olgan. Maksim Gorkiy esa bir daqiqada 4000 so'zni o'qiy olgan. AQSHning 26-Prezidenti Teador Ruzvelt esa har ikki kunda bir kitobni o'qib tugatgan ekan.

Aziz do'stlar, Siz-chi? Siz kitobni qanday o'qiyisiz? Balki Sizda ham mo'jizalar bo'layotgandir?

**Hayotxon ASLANOVA,**  
**Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi**  
**117-umumta'lum mabitabining**  
**7-«A» sinf o'quvchisi**

Amerikaning nufuzli nashrlaridan biri bo'lgan «Time» jurnali 17 yoshli shvetsiyalik Greta Tyunbergni yil odami deb topdi. Greta bir necha yillardan beri iqlimning global o'zgarishlariga qarshi faol kurash-yotgan yoshlardan biridir.

aholisi Gretani faol qo'llab-quvvatlay boshladi. Shu oyda 17 yoshni qarshilagan Greta ayni paytda BMTning Madridda bo'lib o'tayotgan iqlim o'zgarishlariga bag'ishlangan yig'ilishida ishtirot etmoqda.

Aytish joizki, xalqaro nufuzli «Yil odami» mukofotini hali hech kim 16 yoshida qo'lg'a kiritmagan. Yutuqlari haqida Greta shunday deydi:

«Bunday yutuqni qo'lg'a kiritishimni xayolima ham keltirmagan edim. Bu men uchun katta sharaf! Bu yutuq men bilan yelkadosh bo'lgan har bir insonga tegishli».

Muhammadsharif FAYZULLAYEV tayyorladi



*Toshkent shahri-*

*ning Mirobod tumanida joylashgan 110-umumta'lim maktabining 3-«D» sinf o'quvchilari maktabga, o'qituvchilari Dilbar Hayitovaning huzuriga doimo oshiqishadi. Hattoki ta'til kunlarida ham maktabga borgilari kelaveradi, boisi Dilbar opalarini sog'inib qolishadi. Sababi nima ekanligi bilan qiziqyapsizmi? Keling, yaxshisi, sizga bir boshdan tu-shuntira qolaylik.*

## KAYFIYAT GIMNASTIKASI

Maktab. Sinf xonasi. O'quvchi o'qituvchisiga salom berib, sinfga kirib keladi. Ustoz esa uning salomiga alik oladi. Bu barchamiz uchun tanish manzara, shunday emasmi?! Lekin muallimlarimiz orasida o'quvchilar bilan salomlashishni qiziqarli bir marosimga aylantirib yuboradiganlari ham bor. Gap kim haqidagi borayotganini darhol

bilan salomlashgach esa qarsak chalib qo'yishadi. Yana biri o'zini ustozining bag'riga otadi... Bunday usul bolaga nima beradi, degan o'rinni savol tug'iladi.

– Bir necha salomlashish usullarini rasmli ko'rinishda eshikka ilib qo'yaman, – deydi Dilbar Hayitova yuzida iliqtabassum bilan. – O'quvchilarim kelib, qanday usulda

tarzida o'tishiga harakat qiladi. Jumladan, «O'zimiz tayyorlaymiz» deb nomlagan mashg'ulot jarayonida kichkintoylar o'zları mustaqil ravishda tayyorlagan shirinliklarini ota-onalariga, yaqinlariga ilishadi. Shu tariqa ularning oilaga, yaqinlariga bo'lgan mehri, o'zlariga bo'lgan ishonchi ortadi. Tabiat qo'ynida o'tiladigan mashg'ulotlar, ochiq darslar

bolajonlar qalbida kichik yoshdanoq ona tabiatga mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi. Poytaxtimizdagi tarixiy maskanlarga, muzey va ko'rgazmalarga uyuşhtiriladigan sayohatlar orqali esa o'quvchilar ong-u shuuriga Vatan tuyg'usi singadi.

Ustozning ta'lif-tarbiya jarayoniga bunday kreativ yondashuvi, innovatsion g'oyalari samarasini bu sinfning jippi bilimdonlari, sportchilari tomonidan qo'liga kiritilayotgan yutuqlar orqali namoyon bo'lmoqda.

3-«D»ning a'lochi o'quvchilaridan biri Diyora Mirhamidova ingliz tilini o'rganish borasida ildamlab ketayotgan bo'lsa, Abdurahmon Qodiriy singari sportsevar bolalar sportning bir necha turlari bo'yicha qator yutuqlarni qo'iga kiritishyapti. Farzandlarining muvaffaqiyatlaridan quvongan ota-onalar ustozdan behad mammun bo'lib, uning dars o'tish jarayonlarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirishyapti. Ularga ko'pchilik ota-onalarning havas qilishayotgani ham ayni haqiqat.

Nargiza MIRHAMIDOVA,  
Feruza JALILOVA



anglagandirsiz-a?! To'g'ri topdingiz. Dilbar Hayitova asli kasbi o'qituvchi, logoped bo'lgan ustoz, mana 30 yillardiki, bolalik olamida yashaydi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. U nafaqat dars o'tish, balki yuqorida ta'kidlaganimizdek, oddiygina salomlashish jaryonini ham o'ziga xos qiziqarli tarzda amalga oshiradi. Har bir bolani sinf xona eshigi oldida yuzida tabassum bilan qarshi oladi. O'quvchisingning xohishi ga ko'ra o'zi tanlagen usulda salomlashadi: kim bilandir ochiq kaftlarni bir-biriga urib, yana kim bilandir quchoqlashib ko'rishadi. Qay bir o'quvchisi

salomlashishni tanlashadi. Shu tariqa ularni lanjlik holatidan chiqarishga, hali to'la uyg'onmagan miya faoliyatini faollashtirishga, kayfiyatlarini ko'tarishga harakat qilaman. Bunday «kayfiyat gimnastikasi»dan so'ng o'quvchilarim zo'r ishtiyoq bilan dars jaryoniga kirishadilar...

Ustoz pedagogik faoliyatining yana bir ahamiyatlari jihat shundaki, u dars jarayonida hech bir o'quvchisini zerikib qolishiga yo'l qo'ymaydi. Darslarni, mashg'ulotlarni, tadbirlarni nooddatiy tarzda – faqat sinf xonasidagina emas, ko'proq tabiat qo'ynida, o'yin

## DAVRAMIZGA QO'SHILING

*Men tumanimizdagi «Barkamol avlod» bolalar ijodiyoti maktabining «Yosh jurnalist va notiq» to'garagi a'zosiman.*

*Ustozimiz Sayyora Ernazarova olib boradigan mashg'ulotlarda biz turli mavzular atrofida fikrlashamiz, babs, munozaraga kirishamiz.*

*Bugun sizlarni to'garakdagagi do'stlarim, tumanimizdagi 38-umumta'lim maktabi o'quvchilarining ayrim mavzularga oid mulohazalari bilan tanishtirmoqchiman.*

*Muomala, kiyinish madaniyati deganda nimani tushunasiz?*

*Tursunoy XUDOYBERDIYEVA,  
9-sinf o'quvchisi:*

– Ba'zan biz qizlar to'y-hashmagga borganimizda kattalar bizning kiyinishimizdan norozi bo'lib, tanbeh berishadi. Biz ularning nasihatlariga lab burmay, to'g'ri qabul qilishimiz, «Xo'p boladi», deya javob berishimiz lozim. Zero, biz qizlarning go'zalligimiz, avvalo, odobimizda, hayo-boymizdadir.

*Emurod XOLMURODOV,  
8-sinf o'quvchisi:*

– Muomala madaniyati haqida gap ketganda, men o'qituvchi va o'quvchi o'tasidagi munosabatlarga to'xtalishni istardim. Garchand ustozlarning mehnati mashaqqatli bo'sada, men ularni doimo muloyimlik bilan dars o'tishlarini istayman. Tabiiyki, bu biz o'quvchilariga ham bog'liq. Biz ham ularning zahmatlarini qadralashimiz, qonun-qoidalariga rioya qilishimiz, ustozlarni hurmat qilishimiz lozim.



*Diyora SAIDBEKOVA,  
8-sinf o'quvchisi:*

– Aslida, kiyinish madaniyatiga rioya qilish u qadar mushkul emas. Buning uchun urf-odatlarimizdan kelib chiqib, zamonaviylik bilan milliyigimizni uyg'unlashtirib kiyinsak bo'lgani.

*Zuhra GULISTONOVA,  
8-sinf o'quvchisi:*

– Bugungi kunda ota-onamiz huzurida qo'l telefoniga tikilib o'tirishimiz odat tusiga kirib borayotgani o'ylantiradi. Bu aslida humatsizlik namunasi-ku! Bunga yo'l qo'yaylik, aziz tengdoshlar!



*Hasan GULISTONOV,  
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 38-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi*



## ISTE'DODLAR HAMISHA G'OLIB

Aziz bolajonlar! Mana, qishki ta'til ham yakunlanib, eng katta, 3-chorak ham boshlandi. Darslar avvalida ustozlaringizga ta'tilingiz maroqli, mazmuni o'tgani haqida to'lqinlanib gapirib bergenningizga, shubhamiz yo'q.

Bizning maktabimiz o'quvchilar ham ta'tilda ajoyib tanlovlarda ishtirok etishdi. «Besh tashabbus – besh imkoniyat» shiori ostida tumanimizdagi 12-umumta'l'm maktabning o'tkazilgan tadbirda turli maktablardan kelgan jamaoalar o'zaro bellashishdi. Kompyuterda matn terish, slayd yaratish, kitobxonlik, dastro'mol hoshiyasiga gul tikish kabi bir-biridan qiziqarli shartlarda o'quvchilar o'z iste'dodlarini namoyon etishdi. «Yosh iste'dodlar» guruhni a'zolari barcha shartlarni muvaffaqiyatlari bajaridi.

G'olib guruh a'zolriga kitoblar sovg'a qilingan bo'lsa, ularning ustozlari Nigora Alimbekova (98-umumta'l'm maktabi), Mehriniso Tursunova (105-umumta'l'm maktabi), Yulduz Xalilova (122-umumta'l'm maktabi), Dilfuza Shermuhammedova (288-umumta'l'm maktabi)ga tuman xalq ta'limi bo'limining faxriy yorilqlari topshirildi.

– Bugungi ko'rlik-tanlovida barcha maktablarning 4-sinf o'quvchilar qatnashib, o'z iste'dodlarini namoyon etishdi, – deydi hakamlar hay'ati a'zosи Ozoda Nurmuhammedova. Bu esa o'quvchilarimizning besh muhim tashabbus doirasida nazarda tutilgan yo'nalishlarga bo'lgan qiziqishlari katta ekanini ko'rsatadi.

Siz-chi, qaysi to'garaklarga qatnashasiz, nimalarga qiziqasiz, aziz bolajonlar!?

Marg'uba QAMBAROVA,

Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 274-umumta'l'm maktabi o'qituvchisi

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

### Lesson 3

## SPORTS ARE FUN

Dear children, As all you know, sports are very essential to your body and your mind. In fact, there are a lot of different types of sports all over the world. Do you know how to play them?! Today we will learn with you how to play badminton that is interesting for all of you!

**Let's see the details of the game one by one:**

1. The equipment we need: Badminton Racket, Shuttlecock, Badminton Net:



2. Court: We need the place which is given below in the picture.



3. Scoring: A point is scored when you successfully hit the shuttlecock over the net and land it in your opponent's court before they hit it. A point can also be gained when your opponent hits the shuttlecock into either the net or outside the parameters.

### Finding the champion:

To win a game you must reach 21 points before your opponent. If you do so then you will have won that set. If the scores are tied at 20-20 then it comes down to whichever player manages to get two clear points ahead. Winning the overall game will require you to win 2 out of the 3 sets played.

Is it sound interesting? What are you waiting? Stand up and start action!

Gulasal ISMOILOVA,

The English Teacher of School № 43, in Gijduvan district, Bukhara region

Yoshlar ertangi kunning asosiy kuch-qudrati.

A. V. LUNACHARSKIY

## 5-«D» OLDINGI SAFDA!

Kuni kecha matabning 5-«D» sinfida «Our school is old but nice» mavzusida ochiq dars bo'lib o'tdi.



Jasmina Bauramova, Muxlisa Abdunamatova, Sardor Abduraimov, Diyor Mamatov, Aziz Alinazarov, Shirin Narzullayeva singari o'quvchilar ingliz tilidan olgan saboqlarini namoyish etdilar.

Darsga mehmon bo'lib kirgan matabning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Sevara Hasanova o'quvchilarining ingliz tilida ravon va tiniq so'zlashishlari, imlo xatolarsiz yozishlarini ko'rib, xursand bo'ldi.

Shuningdek, Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan matabga harbiy qismlardan askarlar ham taklif qilindi. Ular harbiy bo'lischening mashaqqati va sharafli tomonlarini birma-bir gapirib berdilar.

Ushbu tadbirda ham 5-«D» sinf o'quvchilar faol ishtirok etdi. Ular ingliz, rus va o'zbek tillarida Vatanni asrash, ona yurtga sadoqat haqida she'rlar yod olishdi. Bo'lajak Vatan himoyachilari tomonidan sport yo'nalishida tryuklar ko'satishtdi. Ayniqsa, «Askar maktubi» va «Harbiydan qaytgan o'g'il va ona uchrashuvi» sahna ko'rinishi yig'ilganlarni to'lqinlantirib yubordi.

Zilola SIROJIDDINOVA,  
Toshkent viloyati, Angren shahridagi 41-umumta'l'm matabning ingliz til fani o'qituvchisi



Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 569-MTTda  
«Men ham askar bo'laman!» mavzusida tadbir bo'lib o'tdi.

## NURXONAMIZ NURGA TO'LDI

Yaqinda maktabimiz kutubxonasiga homiyalarimiz tomonidan badiiy kitoblar hadya etildi.

G'ijduvon tumani «MCHJ Middle Asia Gas» korxonasi rahbari Husen Temirov, «MCHJ Osuda – Zamin» korxonasi rahbari Bobir Muhammedov, Romitan tumani klaster ishlab chiqarish korxonasi bosh hisobchisi Ibrohim Temirov, tarbiyachilardan Avaz Chudoyqulov, Uchqun Teshayev, Sodiq Bo'ronov kabi saxovatli insonlar salkam yetti million so'mlik badiiy abiyotlarni maktabimiz Axborot-resurs markaziga sovg'a qilib, uning boyishiga katta hissa qo'shdilar. Homiyalarimiz himmatidan barchamiz behad xursand bo'ldik. Ayniqsa, o'quvchilarimiz nigohidagi mammunlik kayfiyati nafaqat bo'uzlarni, balki ota-onalarimizni ham quvontirmoqda.

Bu egzu harakatdan o'mak olgan matabning 11-«A» sinf o'quvchilarini ham matab kutubxonasiga badiiy kitoblar olib berdilar va nurxonamiz fondining yanada boyitishga o'z hissalarini qo'shdilar.

Nigora NASRULLOYEVA,  
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 51-umumta'l'm matabning o'qituvchisi

## TEMURBEKLAR KUNI



Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 41-umumta'l'm maktabida «Temurbeklar maktabi» nomli ajoyib tadbir bo'lib o'tibdi. Ta'l'm maskanining 5-«A» sinf o'quvchilari ustozlari Kamola Ibragimova boshchiligidagi o'tkazishgan bayramda «Besh tashabbus» loyihasi doirasida ko'rgazmalar ham tashkil etishibdi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari Dildora opa Ibdanova ta'kidlaganidek, ayniqsa, devoriy gazetalar tanlovi barcha bolalarni ijodkorlikka chorlabdi.

Ertalabki nonushta payti. Stol atrofida uch kishi, ota-onasi va Karimjon.

Ota:

— O'g'lim, bugun sen 12 yoshga to'lding. Ya'nini, bir muchal umr ko'rgan tavallud kuning. Onang ikkimiz senga mana bu uch jiddi «Mo'jiza kitob» nomli universal qomus kitobini sovg'a qilamiz. O'rtog'ing Salimjon bilan birga mazza qilib o'qinglar.

**Karimjon:** (Kitoblarni xursand bo'lib olarkan).

— Rahmat dadajon, rahmat oyijon! (Ikkisini quchoqlab, o'pib qo'yadi). Salimjonni chaqirmsam maylimi?

Ota:

— Mayli, chaqiraqol.

Karimjon shoshilib ko'chaga chiqib ketadi va do'sti Salimjon bilan kirib keladi.

**Karimjon:**

— Papkamni qo'yib chiqay.

**Oyisi:** — Kitobingni ololv, o'tog'ing bilan birga o'qisizlar.

**Karimjon:**

— Xo'p bo'ladi. (Onasiga xo'p, de-di-yu, kitobni olib chiqqisi kelmadidi).

**Salimjon:**

— Mana qara, dadam menga yaxshi o'qiganim va yaxshi xulqim uchun velosiped sovg'a qildilar. Ma, bir uchib ko'rl!

**Karimjon:**

— Mazza ekan. Yana bir marta minsam maylimi?

**Salimjon:**

— Mayli, xohlasang uyingga olib chiqib ketishing mumkin. Men endi

To'Iqin MUHIDDIN

## CHIN DO'STLIK (Maktab sahnasi uchun)



**Karimjon:**

— Qara, dadam bilan oyim tug'ilgan kunimga nima sovg'a qilishdi, zo'r kitob ekan, — birinchi kitobni varaq-larkan: — Koinot haqida, yulduzlar, osmonda nechta sayyoralar borligi, o'simliklar dunyosi, o'simliklarning hayvonlardan farqi, yana-chi, qushlar haqida ham qiziqarli ma'lumotlar bor ekan.

**Salimjon:**

— Kitoblar chindanam zo'r ekan. Bitta jildini bir kunga berib tur, ertaga opchiqaman.

**Karimjon:** (Kitobni bergisi kelmay).

— Dadam urishadilar-da, kitobni hech kimga berma, degandilar.

**Salimjon:**

— Mayli unda, shu yerda birga o'qirmiz. (Do'stining qizg'anchiqligidan xafa bo'lmadi. Mo'jiza kitobning birinchi jildidagi bir qancha qiziqarli ma'lumotlarni o'qib bo'lghach, Salimjon do'stini uyiga taklif qildi).

darsimni qilishim kerak. Velosiped minmayman. Olib chiqib ketaver!

**Karimjon:**

— Do'stim, meni kechir, qaysi kitobni so'rasong ham endi qizg'anmay beraman.

**Salimjonning oyisi bu gaplarni eshitib:**

— Do'stlar shunaqa, bir-biriga mehribon bo'ladi, hech narsasini bir-biridan ayashmaydi.

**Karimjon:**

— Oyi, men do'stlik nimaligini endi tushundim. Salimjonning oyisi aytgan-dek bo'laman. Salimjon do'stimdan hech narsamni ayamayman endi.

**Salimjonning oyisi:**

— Yasha, bolam. Agar ikki do'st ajralmaydigan, o'ta inoq bo'lishni istashsa, marra ularniki. Ularning do'stligiga hamma bolalar havas bilan qaraydigan bo'lishadi va ulardan o'nak olishga harakat qilishadi, men sendan xursandman...

## QISHNING ZIYNATI

Qishning ayoz kunida,  
Chana, konki uchadi.  
Mazza qilib bolalar,  
Chuvillashib yuradi.

Hoy qorparcha, qorparcha,  
Osmondag'i zarracha.  
Zaminimiz ustida,  
Yodding oppoq ko'rpara.

Robiyabonu BEYSENOVA,  
Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi  
3-umumta'l'm maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi



## MEHR BILAN O'QIYMIZ



Ra'no YAHOYOYEVA,  
Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi 10-umumta'l'm  
maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi:

— Men ko'p yillardan buyon tuman markazidan ancha olsida bo'lgan qishloqlarning birida o'quvchilarga saboq berib kelmoqdaman. Shu bilan birga, «Yosh adabiyotchilar» to'garagini boshqaraman. Maktabimizda barcha o'quvchilar «Tong yulduzi» gazetasini alohida mehr bilan o'qiydilar. Men ham shu gazetani muntazam kuzatib boraman. Ijodkor o'quvchilarining she'r-u hikoyalari mening o'quvchilarimni ham beixtiyor qalam tebratishga undaydi.

Quyida ijodkor o'quvchilarimdan birining she'riy mashqini tahririyatga jo'natayapman. Umid qilamanki, u barchaga manzur bo'ladi.

## QISHLOG'IM

Bizning qishloq juda ko'rkam,  
Atrofida bog'u roq'lari.  
Har bir chechak, har bir giyoh,  
Ko'nglimizni chunon chog'lari.

Qovun-tarvuz pishgan chog'i,  
Polizlarda sotilmaydi.  
Saxovatlari dehqon xalqim,  
Yer yuzida topilmaydi.

Nozima ABDUG'AFFOROVA,  
Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi  
10-umumta'l'm maktabining 9-sinf o'quvchisi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

2020

# Tong yulduzi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

## Yanvar

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
		1	2	3	4	5
6	7	8	9	10	11	12
13	14	15	16	17	18	19
20	21	22	23	24	25	26
27	28	29	30	31		

## Fevral

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
		1	2	3	4	5
3	4	5	6	7	8	9
10	11	12	13	14	15	16
17	18	19	20	21	22	23
24	25	26	27	28	29	

## Mart

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
		1	2	3	4	5
2	3	4	5	6	7	8
9	10	11	12	13	14	15
16	17	18	19	20	21	22
23	24	25	26	27	28	29
30	31					

## Aprel

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
		1	2	3	4	5
6	7	8	9	10	11	12
13	14	15	16	17	18	19
20	21	22	23	24	25	26
27	28	29	30	30		

## May

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
		1	2	3	4	5
4	5	6	7	8	9	10
11	12	13	14	15	16	17
18	19	20	21	22	23	24
25	26	27	28	29	30	31

## Iyun

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
		1	2	3	4	5
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
29	30					

## Iyul

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
		1	2	3	4	5
6	7	8	9	10	11	12
13	14	15	16	17	18	19
20	21	22	23	24	25	26
27	28	29	30	31		

## Avgust

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
		1	2	3	4	5
3	4	5	6	7	8	9
10	11	12	13	14	15	16
17	18	19	20	21	22	23
24	25	26	27	28	29	30

## Sentyabr

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
		1	2	3	4	5
7	8	9	10	11	12	13
14	15	16	17	18	19	20
21	22	23	24	25	26	27
28	29	30				

## Oktyabr

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
		1	2	3	4	5
5	6	7	8	9	10	11
12	13	14	15	16	17	18
19	20	21	22	23	24	25
26	27	28	29	30	31	

## Noyabr

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
		1	2	3	4	5
2	3	4	5	6	7	8
9	10	11	12	13	14	15
16	17	18	19	20	21	22
23	24	25	26	27	28	29
30						

## Dekabr

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
		1	2	3	4	5
7	8	9	10	11	12	13
14	15	16	17	18	19	20
21	22	23	24	25	26	27
28	29	30	31			

Sevimli gazetangizga  
2020-yil uchun  
obuna davom etmoqda!

Manzilimiz: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100 011. Tel./faks: (0-371) 244-63-08  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz), [tongyulduzi1929@umail.uz](mailto:tongyulduzi1929@umail.uz)  
Telegram: [t.me/tongyulduz](https://t.me/tongyulduz)



## DONOLARGA OMAD YOR!

Zukko o'quvchilar! Quyidagi testni yechish orqali bilimingizni sinab ko'ring va tahririyatimizga qo'ng'iroq qilgan dastlabki uch nafar o'quvchi sovg'a bilan taqdirlanadi.

1. Velosiped so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- A) tez yuruvchilar mashinasi;
- B) motor va g'ildirak;
- C) g'ildirak.

2. 1886-yilning nechanchi sanasida «Avtomobilning dunyoga kelgan kuni» deya e'tirof etilgan?

- A) 25-mart;
- B) 29-yanvar;
- C) 2-fevral.

3. Temiryo'l qaysi asrning boshlarida qurilgan?

- A) XX asr;
- B) XIX asr;
- C) XXI asr.

4. Tramvay so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- A) shoxli arava;
- B) elektrli arava;
- C) aravalalar yo'li.

5. Skafandr so'zi yunon tilidan qanday tarjima qilinadi?

- A) qayiq-odam;
- B) g'avvoslar qo'n-g'irog'i;
- C) suvda suzuvchi odam.

ZUHRA tayyorladi

## Matematika fanidan qiziqarli boshqotirmalar!

Bu boshqotirmalar Siz o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishingizni orttirsa, ajab emas.

$$\text{apple} + \text{apple} + \text{apple} = 30$$

$$\text{apple} + \text{strawberry} + \text{strawberry} = 18$$

$$\text{strawberry} - \text{watermelon} = 2$$

$$\text{watermelon} + \text{apple} \times \text{strawberry} = ?$$

$$\triangle + \triangle \times \triangle = 12$$

$$\star - \square = 2$$

$$\star + \triangle + \triangle = 16$$

$$\triangle + \square \times \star = ?$$

$$\begin{array}{c} \text{balloon} + \text{balloon} = 21 \\ \text{balloon} \times \text{balloon} + \text{balloon} = 52 \\ \text{balloon} - \text{balloon} + \text{balloon} = 14 \\ \text{balloon} + \text{balloon} \times \text{balloon} = ? \end{array}$$

$$\text{plum} + \text{apple} = 6$$

$$\text{orange} - \text{apple} = 2$$

$$\text{apple} + \text{apple} = 10$$

$$\text{plum} \times \text{orange} \times \text{apple} = ?$$

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lum maktabining matematika fani o'qituvchisi Olimjon NE'MATOV tayyorladi

8

20-yanvar 2020



Muassis:

O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir  
Feruza ADIROVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti administratsiyasi  
huzuridagi axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
da 0208-raqam bilan 2019-yil  
10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

TAHIR HAY'ATI:

Dilshod KENJAYEV,  
Alisher SA'DULLAYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV,  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir

Axtamqul KARIMOV  
  
Rassom  
Feruzbek KAMOL o'g'li  
  
Sahifalovchi-dizayner  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-

xonasida chop etildi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari  
chop etilishiga bosmaxona mas'ul.  
Manzilimiz va bosmaxona manzili:  
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,  
30-uy. Indeks: 100011.  
Obun chiqish indeksi: 198.  
www.tongyulduzi.uz  
e-mail: tongyulduzi1929@mail.uz  
telegram: t.me/tongyulduz  
Adadi – 5242  
Buyurtma – V 4026

Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi  
uchun obunani rasmiylashtirgan  
tashkilat javobgar.

Shakli A-3, 2 bosma tabaq.  
Babosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushanba kuniga  
chop etiladi.  
Topshirish vaqt – 18:00  
Topshirildi – 18:00  
Tel./faks: (99871) 244-63-08